Ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy-adabiy jurnal
IF(IMPACT FACTOR)9.573/2025 ISSN 2181-1881

MOTURIDIYLIK

The Maturidiyya - الماتريدية - Матуридизм

Maxsus son /2026

TAHRIR HAY'ATI

Muzaffar KOMILOV – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Shayx Nuriddin XOLIQNAZAR – O'zbekiston musulmonlari idorasi raisi, muftiy

Bahrom ABDUHALIMOV – tarix fanlari doktori, professor

Davronbek MAXSUDOV – tarix fanlari doktori, professor

Ahadjon HASANOV – tarix fanlari doktori, professor

Zohidjon ISLOMOV – filologiya fanlari doktori, professor

Shovosil ZIYODOV – tarix fanlari doktori, professor

Uyg'un G'AFUROV – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori

Jamoliddin KARIMOV – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori

Ibrohim USMONOV – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Ahmad Sa'd DAMANHURIY – islomshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori

Mahmud Erol QILICH – ilohiyotshunoslik fanlari doktori, professor

Nazir Muhammad AYYAD – ilohiyotshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori

Rejep TUZJU – ilohiyotshunoslik fanlari doktori, professor

Muhammad Rashid AKPINAR – ilohiyotshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori

Ashirbek MUMINOV – tarix fanlari doktori, professor

Kamaluddin Nurdin MARJUNI – ilohiyotshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori, professor

Jasur NADJIMITDINOV – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mitasining 2025-yil 4-noyabrdagi 03-07/7225-sonli xulosasi asosida tayyorlandi.

MUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI IMOM MOTURIDIY XALQARO ILMIY-TADQIQOT MARKAZI

Bosh muharrir:
Komiljon Shermuxamedov
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Bosh muharrir o'rinbosari:
Shahzod Islamov
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori

Sahifalovchi:
Zarifjon Arslonov

Dizayner:
Zarifjon G'ulomov

«**Moturidiylik**» jurnali **O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi**ning 2021-yil 30-dekabrdagi 310/10-son qarori bilan dissertatsiya asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2021-yil 12-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №1139 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Tahririyat manzili:
Toshkent shahar, Shayxontohur tumani, Abdulla Qodiriy ko'chasi, 11-uy.
E-mail: info@maturidijournal.org
Web-sahifa: maturidijournal.org
Telefon: (+99855) 515-98-98,

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

MUNDARIJA

ISLOMSHUNOSLIK

Ikhtiyor ABDURAKHMONOV
Allohning kalom sifati haqidagi aqidaviy qarashlar va ularning talqini 5

Jobir ELOV
Imom Buxoriy ta’limotidagi axloqiy tamoyillarning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni 9

Yahyobek HAYITALIYEV
Radikal g‘oyalarning yoshlar ongiga kirib borish yo‘llari («soxta salafiylik» misolida) 16

Abdullatif ALLOQULOV
Moturidiylikda takvin sifati: ma’nosi va zotiy sifat bilan aloqasi 22

Qudratulloh SIDIQMETOV
Ilk takfirchi firqalarning shakllanishi va ularning xatarlari 27

Botirkhon RUZIYEV
Imom Abu Mansur Moturidiyning ilmiy faoliyati tahlili 32

Abdulaziz YAKHSHILIKOV
Aqoid ilmi shakllanishi va rivojlanish bosqichlari 40

Oishakhon SALIMOVA
Imom Moturidiy va uning izdoshlari ilmiy merosining islom ilmlari rivojidagi o‘rni 47

Aydos YAKUPOV
Imom Abu Mansur Moturidiyning kalom ilmi rivojiga qo‘shgan hissasi 50

Nasrullo TOKHTAYEV
Moturidiylik ta’limotining o‘ziga xos jihatlari 55

ISLOM HUQUQI

Muhammad Khodiy AKHMEDOV
Mazhablarning ahamiyati: dalillar va ilmiy asoslar 59

DINSHUNOSLIK

Bobomurod RUSTAMOV
O‘zbekiston Respublikasining «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi Qonuni hamda diniy sohadagi davlat siyosati 63

Abdullaziz ABDUVAKHIDOV
Zamonaviy ta’limda ma’rifatning o‘rni 67

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

ISLOM TARIXI VA MANBASHUNOSLIK

Tokhir KHATAMOV
Xorijiy fondlardagi tasavvuf ta’limotiga oid manbalarning yurtimizda tuzilgan reyestrlarda tasnif etilishi 72

Ahmadkhon RASHIDOV
O‘rta asrlar islom olamida qiroat ilmining rivojlanishi va uning mashhur namoyandalari 81

Samariddin AKHMEDOV
Umar Jandiyning «al-Iqlid» asari metodologiyasi 89

Nozima IBRAGIMOVA
Abbosiylar davri elchilik munosabatlarining konseptual qoidalari 95

Khalilulloh SAIDAKBAROV
Ibn Kasirning «al-Bidoya va-n-nihoya» asarida foydalangan manbalari 102

Zarifjon GULOMOV
«Kitob at-tavhid» tanqidiy nashrlarida matniy tafovutlar va tahrir tamoyillari 107

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

MOTURIDIYLIK
https://maturidijournal.org/index.php/moturidiylik
https://doi.org/10.65944/MOTURIDIY/2026-M/1

Ikhtiyor ABDURAKHMONOV[a]

[a] *Doctor of Philosophy in Islamic Studies*
Imam Maturidi International Scientific Research Center
11A, Abdulla Qodiriy Street, Tashkent, 100011, Uzbekistan
E-mail: abdurahmonov.90@mail.ru

ALLOHNING KALOM SIFATI HAQIDAGI AQIDAVIY QARASHLAR VA ULARNING TALQINI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Alloh taoloning kalom sifati va uni hozirgi davrda to‘g‘ri anglash bilan bog‘liq aqidaviy masalalar tahlil qilinadi. Unda mo‘taziliylik, karromiylik va ba’zi hanbaliylar o‘rtasida yuzaga kelgan ixtiloflar, xususan, Qur’oni karimning maxluq yoki azaliy ekanligi borasidagi bahslar atroflicha yoritiladi. Mazkur masala Abu Hanifa, Imom Moturidiy va boshqa ahli sunna ulamolarining qarashlari asosida tadqiq etilib, Alloh taoloning «nafsiy kalomi» azaliy va maxluq emasligi, uning insonlarga yetkazilgan lafziy ifodalari esa maxluq ekanligi haqidagi aqidaviy yondashuv bayon qilinadi.*

Shuningdek, maqolada kalom sifatiga doir turli qarashlarning shakllanish tarixi, ularning nazariy va aqidaviy asoslari hamda ahli sunna val jamoa aqidasi bilan farqli jihatlari tahlil qilinadi. Adashgan firqalar tomonidan ilgari surilgan da’volarga Qur’on, sunnat va mo‘tabar kalom ulamolarining ilmiy merosi asosida raddiyalar keltirilib, ahli sunna aqidasining daliliy va mantiqiy asoslari ochib beriladi. Tadqiqot natijasida Alloh taoloning kalom sifati masalasini ilmiy va tizimli ravishda o‘rganish, uni zamonaviy diniy-ma’rifiy muhitda to‘g‘ri talqin qilish hamda aqidaviy masalalarda turli noto‘g‘ri qarashlarning oldini olish muhim ahamiyat kasb etishi asoslanadi.

Kalit so‘zlar: *nafsiy kalom, lafziy kalom, ahli sunna, mo‘taziliylik, karromiylik, hanbaliylik, maxluq (yaratilgan).*

THEOLOGICAL VIEWS ON THE ALLAH’S KALAM ATTRIBUTE AND THEIR INTERPRETATIONS

Abstract. *This article analyzes the divine attribute of speech (kalam) of Almighty Allah and the theological issues surrounding its correct understanding in the contemporary context. It provides a comprehensive examination of the disputes that arose among the Mu’tazilites, Karramites, and certain Hanbalites, with a particular focus on debates regarding whether the Holy Qur’an is created (makhluq) or eternal (azali). Investigating this matter based on the views of Abu Hanifa, Imam al-Maturidi, and other scholars of Ahl al-Sunnah, the article articulates the theological framework establishing that Allah’s «inner speech» (kalam nafsi) is eternal and uncreated, whereas its verbal expressions conveyed to humanity are created.*

Furthermore, the article traces the historical development of various perspectives on the attribute of speech, analyzing their theoretical and creedal foundations along with their points of divergence from the tenets of Ahl al-Sunnah wal-Jama’ah. Refutations grounded in the Qur’an, the Sunnah, and the scholarly heritage of authoritative theologians (mutakallimun) are presented against claims advanced by errant sects, highlighting the textual and logical arguments supporting the orthodox creed. Ultimately, the study demonstrates that a scientific and systematic study of Allah’s attribute of speech is essential for its correct interpretation in today’s religious and educational discourse, as well as for preventing doctrinal misconceptions.

Keywords: *nafsi kalam, verbal kalam, Ahl al-Sunnah, Mu’tazila, Karramiyya, Hanbali, createdness (makhluq).*

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

Alloh taoloning kalom sifati borasida yuzaga kelgan ixtiloflar musulmonlarda mazkur masalada ahli sunna val jamoaning pozitsiyasi, shuningdek, adashgan oqimlarning da'volariga qanday javob berish kerakligi haqida savollar tug'ilishiga sabab bo'ldi. Shu bois, Allohning kalom sifati haqidagi ahli sunna aqidasini aniqlashtirish, bu boradagi asosiy fikrlarni bayon qilish hamda ularga shar'iy dalillar, ularni to'g'ri tushunishga asoslangan ilmiy usulda raddiyalar berish zarurati paydo bo'ldi.

Shu nuqtai nazardan, mo'taziliylar, karromiylar va ba'zi hanbaliylarning Allohning kalomiga oid e'tiqodlari hozirgi davrda musulmonlar o'rtasida ayrim kelishmovchiliklarga sabab bo'lmoqda. Ulardan ba'zilari Allohning kalomini maxluq (yaratilgan), deb aytsa, boshqalari harflar va ovozlar qadim (azaliy) deb hisoblaydilar. Salafiylar ushbu ixtilofda alohida ajralib chiqib, lafziy kalomni qadim deb bilib, ahli sunnaning moturidiy hamda ash'ariy ulamolarini asossiz ravishda tanqid qildilar.

Ahli sunna ulamolari o'zlarining aqida va kalomga oid asarlarida Alloh taoloning kalom sifati borligini, ushbu sifat azaliy va maxluq emasligini bayon qilganlar. Ular Alloh taoloning kalomi bo'lgan Qur'on maxluq emasligini ta'kidlaganlar. Shu bilan birga, ular «lafziy kalom», ya'ni mushaflarga yozilgan, qalblarda yodlangan, tillar bilan tilovat qilingan va quloqlar bilan eshitilgan Qur'on lafzlari esa maxluq ekanligini ta'kidlaganlar. Bunga sabab, mazkur fe'llar yaralmishlarning sifatlaridan ekanligidir. Ular adashgan firqalarga haqni bayon qilish va shubhalarni rad etishda yetarlicha mukammal raddiyalar berganlar. Ular bunda shar'iy manbalarga va ularni to'g'ri tushunishga asoslanganlar. Bu esa ularning fikrlarini ushbu muhim aqidaviy sohada mustahkam asosga aylantirgan.

Bunga dalil Imom Abu Hanifaning «al-Fiqh al-akbar» kitobidagi quyidagi so'zlaridir: «Qur'on Alloh taoloning kalomi bo'lib, u mus'haf-larda yozilgan, qalblarda saqlangan, tillarda o'qilgan, Nabiy (s.a.v.)ga nozil qilingan. Qur'onni talaffuz qilishimiz, yozishimiz va qiroat qilishimiz yaratilgan. Qur'on (Allohning kalomi) esa yaratilgan emas»[1]. Ushbu matnda Abu Hanifa (r.h.) Alloh taoloning Zotida qoim bo'lgan kalom sifatini qadim (azaliy) ekanligini, lafziy kalom esa maxluq ekanligini tushuntirgan.

Ahli sunna val jamoa raisi Imom Abu Mansur Moturidiy «Kitob at-tavhid» asarida Alloh taoloning kalom sifatini isbotlab, shunday degan: «Alloh jalla jaloluhu kalom sifati bilan sifatlangani naqliy va aqliy dalil bilan sobit bo'lgan»[2]. Imom Moturidiy ushbu asarda Alloh taoloning kalom sifati borligini isbotlagan va shar'iy manbalardan naqliy dalillar, shuningdek, aqliy dalillarga asoslangan aqliy isbotlarni keltirgan. Bu esa kalom sifati ahli sunna nazdida Alloh taoloning azaliy sifatlaridan ekanligini ko'rsatadi.

Abul Muin Nasafiy esa «Tabsira al-adilla» asarida kalom sifati haqida sunniylarning so'zini bayon qilib, bunday deydi: «Alloh taoloning kalomi Uning azaliy sifati bo'lib, u harf, tovush jinsidan emas. U Alloh taoloning Zotidagi sifati bo'lib, u sukut, go'daklik va soqovlik kabilardan xolidir. Alloh taolo ushbu sifat ila so'zlaydi, buyuradi, qaytaradi va xabar beradi. Qur'oni karimdagi iboralar Alloh taoloning kalomiga dalolat qiladi. Ushbu iboralar Allohning kalomi ma'nosida bo'lgani sababli «Allohning kalomi» deb nomlanadi. Ilohiy so'z ushbu iboralar orqali ifoda qilinadi. Allohning kalomi arab tilida ifodalansa «Qur'on», suryoniy tilida bayon qilingani «Injil», ibroniy tilida ifodalangani «Tavrot» bo'ladi. Bu yerda o'zgarish ifodalovchi iboralarda bo'lmoqda, Alloh taoloning so'zida emas. Bu Alloh taoloni har xil tillarda turlicha nomlangani va bitta tilda turlicha ifodalanganiga o'xshaydi. Biroq nomlanishda hech qanday o'zgarish bo'lmaydi»[3].

Bu yerda Abul Muin Nasafiy Alloh taoloning kalomi haqidagi ahli sunna aqidasini bayon qilib, kalom Uning Zotida qoim bo'lgan, azaliy sifat ekanligini, u yaratilgan harflar va ovozlardan farqli ekanligini tushuntirgan. U Yaratuvchining ushbu kalom sifati ila buyuruvchi, qaytaruvchi va xabar beruvchi ekanini, Qur'on, Injil va Tavrotdagi iboralar Uning aynan kalomi emas, balki unga dalolat qiluvchi va turli tillarda uni ifoda etuvchi ekanligini izohlagan. Bu xuddi Allohning go'zal ismlari va Unga bo'lgan hamd va sano iboralari xilma-xil bo'lsa-da, ilohiy Zotning yagona bo'lib qolishiga o'xshaydi.

Mo'taziliylar Allohning kalomi maxluq hamda Uning Zotida qoim emas, deb iddao qiladilar. Ular Alloh kalomni paydo qilmasidan oldin so'zlovchi bo'lmagan, balki Lavhul Mahfuzda harflarni yaratish

[1] Abu Hanifa. Al-Fiqh al-akbar (Tadqiqot, matn, ilmiy izohlar) / Tarjimon, nashrga tayyorlovchi: Hamidulloh Aminov. – Toshkent: «O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2021. – B. 68.

[2] Imom Moturidiy. Kitob at-Tavhid // Doktor Ahmad Sa'd Damanhuriy tahqiqi. – Oman: Maktaba al-G'onim, 2023. – B. 266.

[3] Abul Muin Nasafiy. Tabsira al-adilla // Kulud Salama tahqiqi. – J. 1. – Dimashq. 1990. – B. 259.

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

bilan mutakallim ismiga ega bo‘lgan, deb da’vo qiladilar. Ular o‘z da’volariga Alloh taoloning «Biz uni arabiy Qur’on qildik» (Zuxruf surasi, 3-oyat) oyatini dalil qilib, «qildik» (جَعَلْنَا) hamda «yaratish» (التخليق) so‘zlari o‘zaro sinonim deb hisobladilar. Shuningdek, ular Allohning kalomini voqelikda mavjud bo‘lgan, harflar va ovozlardan iborat so‘zga qiyoslab, qadim (azaliy) Zotda ovoz va harflarning mavjud bo‘lishi mumkin emasligini xulosa qildilar.

Ahli sunna ulamolari ushbu masalada ularga raddiya berib, yuqoridagi oyat yoki shunga o‘xshash oyatlar[4] lafziy kalomga, ya’ni Alloh taolo Muhammad (s.a.v.)ga arab tilida nozil qilgan muhdas (yangi paydo bo‘lgan) iboralarga dalolat qilishini aytganlar[5].

Mo‘taziliylarning Allohning kalomini harflar va ovozlar jinsidan iborat voqelikdagi so‘zga qiyoslashlari esa noto‘g‘ridir. Chunki voqelikdagi so‘zlar aslida insonning ichidagi bir ma’no bo‘lib, harflar va ovozlar o‘sha ma’noni ifodalash va zohir qilish vositalaridir. Bu «nafsiy kalom» yoki «nafs kalomi» deb ataladi.

Qur’oni karimda nafsiy kalom mavjud ekaniga bir qator oyatlar kelgan. Jumladan, Alloh taolo shunday deydi: «Va ular ichlarida: «Shu gapimiz uchun Alloh bizni azoblamasa edi», derlar» (Mujodala surasi, 8-oyat). Ushbu oyatdagi «derlar» deb harflar va ovozdan iborat so‘zlar emas, balki ularning qalblaridagi va fikrlaridagi so‘zlari nazarda tutilgan.

Shuningdek, Umar (r.a.) shunday degan: «Saqifa kunida qalbimda bir kalom (so‘z)ni tayyorladim, lekin Abu Bakr mendan oldin gapirdi»[6].

«Nafsiy kalom» degan tushuncha insonlar so‘zlashuvida ham uchraydi. Masalan, bir kishi boshqa birovga qarata: «Mening senga aytmoqchi bo‘lgan bir gapim bor», deydi. Bu bilan u harflardan iborat so‘zlarni emas, balki qalbidagi yetkazmoqchi bo‘lgan ma’noni nazarda tutgan bo‘ladi.

Banu Umayya shoirlaridan bo‘lgan Axtal shunday degan: «Kalom, albatta, qalbdadir, til esa qalbga dalolat qilish uchun yaratilgan».

Shuningdek, tilshunoslar ham faqatgina dildagi ma’noga dalolat qiluvchi iborani «kalom» deb ataydilar. Agar u qalbdagi ma’noga dalolat qilmasa, uni «kalom» deb atamaydilar. Masalan, kimdir uyqusida «suv... suv...» desa, bu haqiqiy «kalom» hisoblanmaydi. Chunki u shu onda ongli ravishda suv so‘ramayapti. Demak, «kalom» dildagi ma’no bo‘lib, bu lafzlar va harflar esa kalomga dalolat qiluvchi vositalardir.

Allohning kalomi Lavhul Mahfuzda paydo bo‘lgan harflar va ovozlardan iborat, deyish naqliy va aqliy dalillarga zid hisoblanadi. Kalom sifati Allohning Zotida azaldan va abadiy sobit bo‘lgan sifatlaridandir. Ushbu sifatni «paydo bo‘lgan» deyish uni yaratuvchiga muhtoj sifatga aylantiradi. Bu esa Uning azaliyligiga ziddir.

Mo‘taziliylik oqimining mazkur masaladagi ilmiy va tanqidiy tahliliga asoslanib, Alloh taoloning kalomi maxluq hamda Uning Zotida qoim emas, degan fikr uchun keltirgan dalillari zaif va voqelikdagi narsani g‘aybga noto‘g‘ri qiyoslash bo‘lib, kalomning mohiyati, lug‘aviy, aqliy va naqliy ma’nosini e’tiborga olmagan holda yuzaga kelgani aniq bo‘ladi. Haqiqat shuki, Alloh taoloning kalomi Uning Zotida qoim bo‘lgan azaliy sifatidir. Shuningdek, harf va ovozlar bilan arab tilida nozil qilingan Qur’on o‘sha azaliy kalomga dalolat qiluvchi iboralardir.

Tinglovchining xayoliga harflar va ovozlardan tarkib topgan iboralar maxluq emas, degan fikr kelmasligi uchun Abul Muin Nasafiy[7], Sa’diddin Taftazoniy[8] kabi muhaqqiq mutakallimlar[9] hech qanday qayd qilmasdan «Qur’on maxluq emas», deyish kerak emasligini ta’kidlaydilar. Balki «Qur’on – Allohning kalomi maxluq emas» deyish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Ba’zi hanbaliylar va karromiylar esa: «Alloh taoloning kalomi harflar va ovozlardan boshqa narsa emas. U mushaflarda va tillarda mavjuddir. Shunga qaramay u qadimdir, chunki Allohning kalomi eshitiladi. Zero Alloh taolo: «...Toki u Allohning kalomini eshitsin», degan[10]. Shuning uchun eshitiladigan harflar qadim bo‘lishi shart»[11], deydilar.

Ularning bu da’volari botildir. Chunki harflar ketma-ket keladi, ba’zi harflar boshqalaridan oldin

[4] Masalan, Anbiyo surasining 2-oyati va Shuaro surasining 5-oyati.

[5] Akmaliddin Bobirtiy. Sharh al-Vasiya // Hamza Bakriy tahqiq. – Ummon: Dor al-fath, 2017. – B. 105.

[6] Faxriddin Roziy. Mafotih al-g‘ayb. – Bayrut, 2000. – J. 1. – B. 35; Ibn Kasir. al-Bidoya va-n-nihoya. – Dor al-fikr, 1986. – J. 5. – B. 246.

[7] Abul Muin Nasafiy. Tabsira al-adilla // Kulud Salama tahqiqi. – Dimashq. 1990. – J. 1. – B. 284.

[8] Sa’diddin Taftazoniy. Sharh al-Aqoid // Ali Kamol tahqiqi. – Bayrut, 2014. – B. 67.

[9] Qarang: Sig‘noqiy. at-Tasdid. – B. 251; Sobuniy. al-Kifoya // Abdulloh Muhammad tahqiqi. – Qohira, 2020. – B. 347.

[10] «Agar mushriklardan birontasi panoh so‘rasa, unga panoh ber, toki u Allohning kalomini eshitsin» (Tavba surasi, 6-oyati).

[11] Qarang: Akmaliddin Bobirtiy. Sharh al-Vasiya // Hamza Bakriy tahqiqi. – Ummon: Dor al-fath, 2017. – B. 106; Abul Barakot Nasafiy. al-I’timod fi-l-i’tiqod» // Nodir ibn Muhammad tahqiqi. – Damashq, 2020. – B. 137-138.

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

keladi. Har qanday narsa, agar undan oldin boshqa narsa o‘tgan bo‘lgan bo‘lsa, demak, u yaratilgan bo‘ladi. Ular dalil o‘laroq keltirgan oyatdagi «Allohning kalomi»dan esa yuqorida aytilganidek, «lafziy kalom» nazarda tutilgan.

Alloma Farhoriy «Sharh al-Aqoid» asariga yozgan sharhida mutakallimlarning hanbaliylarni qattiq qoralashlarini naql qilib, ularga nisbatan odobsizlik qilishdan hamda ular haqida noo‘rin so‘zlarni aytishdan tiyilish lozimligini ta’kidlaydi. Shuningdek, u Imom Ahmadning lafziy kalom maxluq emas, degan so‘zini bir necha jihatdan ta’vil qilgan[12]. Alloh taoloning kalomini eshitish masalasiga kelsak, Shayx Abu Mansur Moturidiy Alloh taoloning nafsiy kalomi eshitilmaydi, deb ta’kidlagan. Zero, ovoz bo‘lmagan narsani eshitish imkonsizdir. Chunki voqelikdagi eshitish ovozga bog‘liq bo‘lib, u ovozga doimiy hamroh bo‘lib keladi. «Ta’vilot al-Qur’on» asarida zikr qilinishicha, Muso (a.s.) Alloh taoloning kalomiga dalolat qiluvchi ovoz (ya’ni, lafziy kalom)ni eshitgan. Uning «Kalimulloh» (ya’ni, Alloh bilan gaplashgan payg‘ambar) degan nomga sazovor bo‘lishi aynan ana shu ovozni kitob yoki farishta orqali emas, balki bevosita eshitgani sabablidir. Bu esa ovoz va harflarning umuman yo‘qligini anglatmaydi[13].

Imom Abul Hasan Ash’ariy, Alloh taoloning nafsiy kalomi eshitiladi deb hisoblaydi. Buning asosi har bir mavjud narsani ko‘rish mumkin bo‘lganidek, eshitish ham mumkin, degan qoidadir[14]. Ash’ariylardan Ibn Furakning fikricha, Qur’on tilovat qiluvchi qori o‘qiganda ikki narsa mavjud bo‘ladi: biri qorining ovozi, ikkinchisi esa Alloh taoloning kalomidir[15].

Xulosa qilib aytganda, Alloh taoloning kalom sifati masalasi e’tiqodiy masalalar ichida eng nozik va eng muhimlaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun unga ilm va puxta tahlil bilan yondashish zarur. Ahli sunna val jamoa vahiy (Qur’on va sunnat) matnlari bilan sog‘lom aqlni birlashtirish asosida Alloh taologa qadimiy va yaratilmagan «nafsiy kalom» sifatini isbot qiladi. Ahli sunna olimlari Allohning Zotiga xos bo‘lgan bu kalom sifatini odamlar tomonidan ovoz va harflar bilan o‘qiladigan yaratilgan ifodalardan ajratib tushunadilar. Shuningdek, mo‘taziliylar, shuningdek, hanbaliylar va karromiylar mazkur masalada yoki g‘uluv yoki inkor holatiga tushib qolganlar. Bu esa ularning ma’no qilingan narsa bilan uni ifoda qiluvchi so‘zlarni aralashtirib yuborishlari yoki maxluqotga nisbatan xato qiyos qo‘llashlari sababli sodir bo‘lgan.

Ahli sunna val jamoa ulamolari Alloh taoloni yaratilish va muhtoj bo‘lish kabi nuqsonli sifatlardan poklagan, Unga munosib bo‘lgan komil sifatlarni isbot qilgan hamda buni mustahkam aqliy va naqliy dalillar bilan asoslab bergan.

[12] Farhoriy. Sharh Sharh al-Aqoid. – Karachi, 2015. – B. 231.
[13] Imom Moturidiy. Ta’vilot al-Qur’on // Majdiy Basallum tahqiqi. – J. 3. – B. 420.
[14] Akmaliddin Bobirtiy. Sharh al-Vasiya // Hamza Bakriy tahqiqi. – Ummon: Dor al-fath, 2017. – B. 107.
[15] O‘sha manba: – B. 107.

MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abu Hanifa. Al-Fiqh al-akbar (Tadqiqot, matn, ilmiy izohlar) / Tarjimon, nashrga tayyorlovchi: Hamidulloh Aminov. – Toshkent: «O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2021. – B. 68.
2. Abul Muin Nasafiy. Tabsira al-adilla // Kulud Salama tahqiqi. – Dimashq. 1990.
3. Akmaliddin Bobirtiy. Sharh al-Vasiya // Hamza Bakriy tahqiqi. – Ummon: Dor al-fath, 2017.
4. Asfahoniy. al-Ag‘oniy. – J. 7.
5. Imom Moturidiy. Kitob at-tavhid // Doktor Ahmad Sa’d Damanhuriy tahqiqi. – Oman: Maktaba al-G‘onim, 2023
6. Imom Moturidiy. Ta’vilot al-Qur’on // Majdiy Basallum tahqiqi. – J. 3.
7. Sig‘noqiy. At-Tasdid. – J. 1.
8. Sobuniy. al-Kifoya // Abdulloh Muhammad tahqiqi. – Qohira, 2020.
9. Taftazoniy. Sharh al-aqoid // Ali Kamol tahqiqi. – Bayrut, 2014.
10. Farhoriy. Sharh Sharh al-Aqoid. – Karachi, 2015.
11. She’r Axtal. – Bayrut: Dor al-Mashriq,
12. Ibn Kasir. al-Bidoya va-n-nihoya. – Dor al-fikr, 1986.

REFERENCES

1. Abu Hanifa. Al-Fiqh al-akbar (Tadqiqot, matn, ilmiy izohlar) / Tarjimon, nashrga tayyorlovchi: Hamidulloh Aminov. – Toshkent: «O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2021. – B. 68.
2. Abul Muin Nasafiy. Tabsira al-adilla // Kulud Salama tahqiqi. – Dimashq. 1990.
3. Akmaliddin Bobirtiy. Sharh al-Vasiya // Hamza Bakriy tahqiqi. – Ummon: Dor al-fath, 2017.
4. Asfahoniy. al-Ag‘oniy. – J. 7.
5. Imom Moturidiy. Kitob at-tavhid // Doktor Ahmad Sa’d Damanhuriy tahqiqi. – Oman: Maktaba al-G‘onim, 2023
6. Imom Moturidiy. Ta’vilot al-Qur’on // Majdiy Basallum tahqiqi. – J. 3.
7. Sig‘noqiy. At-Tasdid. – J. 1.
8. Sobuniy. al-Kifoya // Abdulloh Muhammad tahqiqi. – Qohira, 2020.
9. Taftazoniy. Sharh al-aqoid // Ali Kamol tahqiqi. – Bayrut, 2014.
10. Farhoriy. Sharh Sharh al-Aqoid. – Karachi, 2015.
11. She’r Axtal. – Bayrut: Dor al-Mashriq,
12. Ibn Kasir. al-Bidoya va-n-nihoya. – Dor al-fikr, 1986.

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI IMOM MOTURIDIY XALQARO ILMIY-TADQIQOT MARKAZINING «MOTURIDIYLIK» JURNALI

Mazkur nashr oliy o‘quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot muassasalarining professor-o‘qituvchilari, doktorantlari, mustaqil tadqiqotchilari, magistrantlari, talabalari va keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.

Tahririyat fikri muallif nuqtai nazari bilan bir xil bo‘lmasligi mumkin. Jurnaldan ko‘chirma olinganda manba qayd etilishi shart.

MOTURIDIYLIK

The Maturidiyya - الماتريدية - Матуридизм

Maxsus son/2026

Bosh muharrir: **K.Shermuxamedov**
Muharrir: **A.Tajiyev**
Nashr uchun mas’ul: **Z.Arslonov**
Chet tillaridagi matnlar muharriri: **O.Sotvoldiyev**
Dizayner-sahifalovchi: **Z.G‘ulomov**

Nashriyotning lisenziya raqami AI № 0011. 06.05.2019-yil.
Bosishga 12.10.2026-yil ruxsat etildi. Bichimi 60×84 $^{1}/_{8}$.
Rizograf usulda bosildi. Shartli bosma tabog‘i 10,2.
Nashr tabog‘i 10,4. Buyurtma № 23/1.
Bahosi shartnoma asosida.

«Standard Poligraf Service»
MCHJ qo‘shma korxonasi bosmaxonasida chop etildi.
100152, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Foziltepa ko‘chasi, 12B.